

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING MILLIY VA ETNIK ZIDDIYATLARNI OLDINI OLISHDAGI ROLI

Yunusjon Axmedov

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati

“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi mustaqil tadqiqotchisi

akhmedov.yunusjon2301@gmail.com

ANNOTATSIYA

Milliy va etnik ziddiyatlar o'zining xavfliligi nuqtai nazaridan biror bir urushlardan kam emas. Bunday ziddiyatlar globallashuv sharoitida yangicha xususiyatlarda namoyon bo'lib davlatlar, mintaqalar va xalqlarning hayotini izdan chiqarmoqda. Polietnik davlatlarda milliy va etnik ziddiyatlarni oldini olish, ularning darajasini pasaytirish, qarama-qarshi tomonlarning o'rtasida muloqot muhitini yuzaga keltirishda bor kuch va imkoniyatlardan foydalanilib usul va vositalar ishga solinmoqda. Ayniqsa xalqaro va milliy darajadagi fuqarolik jamiyati institutlari bo'lgan nodavlat, notijorat tashkilotlarning bunday ziddiyatlarni profilaktikasi, ularni to'xtatish, keskinlik darajasini pasaytirishga qaratilgan turli faoliyatlari sezilarli natijalarga olib kelmoqda. Bunday tashkilotlarni faoliyatini o'rganish, ularning tajribalarini zarur hollarda qo'llab ko'rishga intilish polietnik mamlakatlar uchun zarur.

Kalit so'zlar: globallashuv, milliy ziddiyatlar, etnik ziddiyatlar, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar, notijorat tashkilotlar, polietnik mamlakatlar, millatlararo ziddiyatlar.

ABSTRACT

Conflicts on national and ethnic grounds are no less dangerous than wars. Such conflicts are manifesting in new features in the conditions of globalization and disrupting the life of states, regions and peoples. In polyethnic states, all efforts and opportunities are being used to prevent national and ethnic conflicts, to reduce their level, to create an atmosphere of dialogue between the opposite parties, and methods and tools are being used. In particular, various activities of non-governmental, non-profit organizations, which are institutions of civil society at the international and national levels, aimed at preventing such conflicts, stopping them, and reducing the level of tension, are bringing significant results. It is necessary for multi-ethnic countries to study the activities of such organizations and try to support their experiences in necessary cases.

Keywords: globalization, national conflicts, ethnic conflicts, civil society institutions, non-governmental organizations, non-profit organizations, polyethnic countries, inter-ethnic conflicts.

KIRISH

Etnosiyosiy jarayonlarni o‘rganish – zamonaviy dunyoda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha dunyo millatchilikning “renessansi”ni boshdan kechirmoqdaki, “chegarasiz dunyo” siyosatini targ‘ib qilayotgan globalistlar uchun kishilar ongi va siyosatdagi o‘ziga xos burilish “globallashuv paradoksi” deb baholanmoqda. Global rivojlanish paradigmasi o‘zgarib insoniyat ro‘baro‘ bolishi mumkin bo‘lgan yirik muammolardan tashqari, qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar darajasidagi muammolarni yechimi uchun javob izlash dolzarblashib bormoqda. Mana shunday qiyin sharoitda milliy va etnik munosabatlar sohasi tashqi bosimlar va siyosiy manipulyatsiya uchun eng zaif sohaga aylanib qoldi. Natijada globallashuv davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy to‘siqlarni bartaraf etayotgan bir sharoitda milliy va etnik xarakterdagi ziddiyatlar dunyoning turli mintaqalarida o‘ziga xos rangbaranglikda namoyon bo‘lmoqda. Ziddiyatlar esa davlatlar, mintaqalar, xalqlar va hatto sivilizatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashuvini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda milliy va etnik xarakterga ega bo‘lgan ziddiyatlar polietnik davlatlarning hududiy yaxlitligiga xavf solishdan tashqari ularning geosiyosiy maydondagi imkoniyatlarini ham pasaytirib yubormoqda. Iqtisodiy hukmronlik maqsadidagi geosiyosiy kuchlarni polietnik davlatlarning eng “nozik nuqtasi”ga ta’sir o‘tkazish orqali raqibni muayyan talablarga “rozi”ligini olish tajribasi shakllanib bormoqda. Shuning uchun globallashgan dunyoda polietnik mamlakatlar o‘zlarining milliy-hududiy yaxlitligi, siyosiy barqarorligini saqlab qolish maqsadida milliy va etnosiyosiy ziddiyatlarni oldini olish, ularning keskinligini yumshatish profilaktikasini kuchaytirishga qaratilgan turli vositalarni ishga solishmoqda. Ular qo‘llyotgan tajribalar hamma vaqt ham milliy va etnik barqarorlikni saqlab qolishning kafolatlangan sharti bo‘lmasligi mumkin, lekin muayyan darajada erishilgan yutuqlarini o‘rganish, zaruriy hollarda qo‘llab ko‘rish foydadan xoli bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’lumki, demokratik xarakterdagi davlatlarning deyarli barchasida fuqarolik jamiyatining institutlari davlat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va hatto siyosiy masalalarni hal etishda arzirli kuchga aylanib bormoqda. Ularning faolligi ortidan davlat qator

muammolarni fuqarolarning ongli uyushmalariga tayangan holda yechimini topishga muvaffaq bo‘lmoqda, aniqrog‘i bunday institutlarning amal qilishiga munosib shart-sharoitlarni yaratish orqali o‘zining majburiyatlarini bir qismini ma’lum ma’noda ularning yelkasiga “yuklamoqda”. Ongli ravishda birlashgan faol fuqarolarning uyushmalari jamiyat taraqqiyoti, fuqarolar o‘rtasidagi hamjihatlikka raxna soladigan, qonunlarni buzilishini oldini oladigan xilma-xil muammolarga qarshi kurashish uchun tayyor turgan malakatlarda hokimiyat bunday institutlarni amal qilishiga qulay imkoniyatlarni yaratib beradi. Savol kelib chiqadi, polietnik mamlakatlarda milliy va etnik ziddiyatlarning profilaktikasi, ularni destruktiv ta’sirini pasaytirish uchun fuqarolik jamiyatining institutlarini jalb qilsa bo‘ladimi? Qator polietnik mamlakatlarning tajribasiga e’tibor berilsa savolga ijobiy javob olsa bo‘ladi.

Polietnik mamlakatlardagi milliy va etnik munosabatlar keskin fazaga kirishganda bunday munosabat subyektlari hokimiyat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga hamma vaqt ham xayrixoh bo‘lmaydilar. Shuning uchun ziddiyatlar keskin tus olmasidan ularni ilmiy o‘rganish, profilaktikasiga jiddiy yondoshish oqibatlarini halokatli bo‘lishini oldini oladi. Aynan etno-siyosiy va milliy ziddiyatlarni oldini olishga fuqarolik jamiyati institutlarini kuchini safarbar etish tajribasi qator mamlakatlarda ommalashmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining davlatlar milliy xavfsizligiga tahdidlar paydo bo‘lganda real imkoniyatlari beqiyos bo‘lishi mumkinligiga misolni yaqin o‘tmishdan olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. 2011-yili boshlangan “Arab bahori”nomini olgan siyosiy jarayonlarning beshigi Shimoliy Afrikadagi Tunisda vujudga keldi. Bu yerda amalga oshgan “Yasmin inqilobi”dan keyin mamlakat fuqarolik urushi bo‘lag‘asiga kelib qoladi. Tarkibiga Umumtunis mehnat konfederatsiyasi, Tunis sanoat, savdo va hunarmandchilik konfederatsiyasi, Tunis Inson huquqlarini himoya qilish ligasi, Tunis advokatlar ordeni kabi fuqarolik jamiyati institutlari Tunis milliy muloqot Kvartetiga birlashdi. Kvartet yuqorida nomi keltirilgan to‘rtta jamoat tashkilotlarining birlashuvi natijasida 2013-yilda yuzaga keladi. Siyosiy larzalarni boshdan kechirib fuqarolik urushi bo‘lag‘asiga kelib qolgan mamlakatda qarama-qarshi tomonlarni muzokara stoliga keltirish, tinchlikka erishishning muqobil variantlarini qo‘llagan Tunis kvarteti 2015 yili tinchlik sohasidagi Nobel mukofotiga loyiq deb topilgan edi. Tunisdagi mavjud holatni risoladagiday deb bo‘lmaydi, lekin “Arab bahori”ni boshdan



kechirgan uning qo'shnilari va Yaqin Sharq mamlakatlaridagidan bu yerdagi holat ancha ijobiy sanaladi. Muhimi, fuqarolik jamiyati institutlari ulkan ijtimoiy-siyosiy fojiani oldini olishga muvaffaq bo'lgan.

Etnokonfessional, etno-milliy munosabatlar keskin bo'lishi xavfi bor mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlarini rolini oshirish orqali jamiyatda muloqot muhitini yuzaga keltirish, milliy, diniy, etnik ziddiyatlarni profilaktikasini samarali amalga oshirish imkoniyati mavjudligini yana boshqa misollar orqali ham ko'rish mumkin. Dunyoning ko'plab mintaqalarida kelib chiqqan milliy-etnik nizolarni hal etishda xalqaro nodavlat tashkilotlardan tortib to lokal nodavlat va notijorat tashkilotlarining muayyan rolini ko'rishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tog'li Qorabog'dagi arman-ozarbayjon, Dnestrboyidagi rusiyzabon aholi va moldavanlar, Bosniya va Gersegovinadagi serblar va bosniyaliklar, Ukrainaning janubi-sharqidagi, Janubiy Osetiya, Abxaziyadagi etno-siyosiy ziddiyatlarga jahon jamoatchiligi e'tiborini tortish, bu hududlardagi real ziddiyatlarning xavfi, oqibatlari, ularni yumshatishga oid takliflarni ishlab chiqishda Karnegi fondini ta'siri kuchli bo'lgan. Bu xalqaro fond asosan konfliktogen xarakterdagi davlatlararo munosabatlarga oid ma'ruzalar tayyorlasada, milliy va etnik ziddiyatlarni yumshatishga, qarama-qarshi tomonlarni muzokara stoliga da'vat etishda ta'sir kuchi nihoyatda kuchli desak xato bo'lmaydi.

Nodavlat va notijorat xarakterdagi tashkilotlarning etnik ozchilik huquqlarini himoya qilishga oid shunday ishlariga guvoh bo'lish mumkinki, bunday institutlarni tashkil qilish, ularni qo'llab-quvvatlash orqali juda ko'p muammolarni hal qilish mumkinligiga ishonch hosil bo'ladi. XX asr 90-yillarida Yevropa lo'lilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha markazi tashkil etilgan edi. Xalqaro jamoat tashkiloti sifatida markaz mintaqadagi davlatlarda lo'lilar huquqlarini himoya qilish boyicha vaziyatni monitoringini olib boradi, ularning huquqlari buzilgan sharoitda yuridik himoyani tashkil etadi. Tashkilotning say'-harakatlari bilan lo'lilar etnik guruhi vakillariga nisbatan zo'ravonlik va nafrat, ta'limda segregatsiya, majburan ko'chirish va sterilizatsiya holatlari aniqlangan. Tashkilot bergan ma'lumotlarga ko'ra Bolgariya, Vengriya, Slovakiya,

Chexiya kabi Yevropa mamlakatlarida odam savdosi qurbonlarining 70-80 foizi lo‘lilar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shunday holatlar bo‘lganki milliy va etnik xarakterdagi ziddiyatlarni oldini olishda obro‘-e‘tiborga ega alohida shaxslar ham muhim rol o‘ynashgan. 1993 yili Burundida boshlangan tutsi va xutu etnik guruhlarini ortasidagi fuqarolik urushini to‘xtatishda Janubiy Afrika Respublikasi sobiq prezidenti Nelson Mandelaning tomonlar o‘rtasida muloqotni tiklashdagi roli beqiyos bo‘lgan. 2005 yili “Inqirozlarni oldini olish bo‘yicha tashabbus” nomli nodavlat tashkiloti Finlyandiyaning sobiq prezidenti Martti Axtisaari boshchiligida Indoneziya hukumati va Achex viloyatidagi separatistlar o‘rtasida tinchlik shartnomasini imzolanishi natijasida o‘ttiz yil davom etgan urushga yakun yasashga muvaffaq bo‘lindi.

Postsovet mintaqadagi deyarli barcha respublikalar ittifoq parchalangach turli fazada amal qiladigan milliy-etnik ziddiyatlarni boshidan kechirishdi, ularning asorati hamon seziladi. Ba‘zilar hozir faol ko‘rinishda namoyon bo‘layotgan bo‘lsa, ayrimlari latent fazaga tushgan. Rossiya Federatsiyasi ham sobiq ittifoq parchalanishidan keyin milliy va etnik konfliktlarni turli darajada boshidan kechirdi, bu jarayon hamon davom etmoqda. Bu davlatning milliy va etnik rang barangligini alohida fenomen desa bo‘ladi. Mamlakatda konfliktogen mintaqalar juda ko‘p bo‘lgani, bu holat mamlakatning milliy xavfsizligini shubha ostida qoldirishi mumkinligini anglagan hukumatning milliy siyosatida nodavlat, notijorat tashkilotlarni lokal va federativ subyektlar o‘rtasidagi milliy va etnik nizolarni profilaktikasi, ularni fonini pasaytirish, turli milliy va etnik guruhlar o‘rtasidagi milliy muloqotni yuzaga keltirish ishiga jalb qilishga alohida e‘tibor beriladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining aynan milliy va etnik nizolarni oldini olishga qaratilgan maqsadlarini davlat qo‘llab-quvvatlaydi, ular bilan hamkorlik qiladi, ularning faoliyati uchun munosib shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Mamlakatda milliy va etnik ziddiyatlarni oldini olishga qaratilgan nodavlat, notijorat tashkilotlarining faoliyat yo‘nalishlari rang-barang bo‘lib, ular migrantlar huquqlarini himoya qilishdan tortib to kamsonli millatlarning etnomadaniy yutuqlarini targ‘ibotigacha yo‘naltirilgan. Masalan, “Ryazan mediatsiya va huquq” muxtor notijorat tashkiloti millatlararo munosabatlarni tartibga solish, ziddiyatlarni oldini olish bo‘yicha o‘ta foydali uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqishga, lokal xarakterdagi

milliy va etnik nizolarni oldini olish, ularni kelib chiqishi mumkinligini aniqlash bo'yicha faol ishlarni yo'lga qo'ygan. Markaz lokal xarakterdagi milliy ziddiyatlarni kelib chiqishini til-madaniy, etnodemografik, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, diniy-konfessional sabablarini ham jiddiy tadqiq qilish ishiga e'tibor beradi, shunday ziddiyatlarni monitoringini olib boradi.

Rossiya Federatsiyasining turli mintaqalarida milliy va etnik nizolarni oldini olishga qaratilgan 100 dan ortiq nodavlat, notijorat tashkilotlari faoliyat yuritadi. Hukumat idoralari ularning xulosalari, faoliyatining natijalarini o'rganib tahlil qilib, milliy va etnik yo'nalishdagi siyosatni belgilashda foydalanishga harakat qiladi. Hukumatning Prezident grantlari Fondi tomonidan moliyalashtiriladigan ko'plab nodavlat, notijorat tashkilotlar milliy ozchilikni huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, konfliktogen zonalarda jamoatchilik diplomatiyasini yo'lga qo'yishga harakat qilishadi. "Jamoatchilik diplomatiyasi va vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash" fondi millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarni barqarorlashtirish bo'yicha turli loyihaviy konkurslar tashkil etib g'olib tashkilot va loyihalarga moliyaviy grantlar taqsimlab berishadi. Eng muhimi bunday loyihalarni ishlab chiqishda yoshlar qatlami faol ishtirok etadi.

O'rta Osiyo respublikalarining milliy-etnik muhitini izdan chiqarish sovet davri siyosatining oqibatida yuz bergan. Sun'iy ravishda milliy birliklarning muayyan davlatlar doirasida birlashtirilishi shunday kechdiki, bu mintaqa sovet davlati parchalangach etno-milliy konfliktogen zonaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi ham XX asr 90-yillarida bunday ziddiyatlarni boshdan kechirdi. Yaqin qo'shnilarimizdan Afg'oniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'istonda ham konfliktogen o'choqlar mavjud. Qozog'iston bu masalada oxirgi yillarda muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Hukumat etno-milliy konfliktogen muhitni sog'olmashtirish maqsadida 1995 yil 1-martda Qozog'iston Respublikasi birinchi prezidenti Nursulton Abishevich Nazaboyev tashabbusi bilan Qozog'iston xalqi Assambleyasi tashkil etildi. Fuqarolik jamiyatining bu instituti Qozog'iston siyosiy tizimining muhim elementi sifatida mamlakatdagi barcha etnoslarning huquq va erkinliklarining so'zsiz ta'minlanishi masalasini hal etishni maqsad qilgan. Mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni ta'minlash, davlat va fuqarolik institutlarining millatlararo munosabatlarni sog'lomlashtirish, ularni samarali harakatini ta'minlashda Assambleyaning roli nihoyatda baland.

Assambleya konstitutsiyaviy organ bo'lib, maxsus qonun bilan faoliyati huquqiy himoyaga olingan. Mamlakat qonun chiqaruvchi organida 9 ta deputatlik o'rnini aynan Assambleyaga ajratilishi ham uning ta'sir darajasi balandligidan darak beradi. Assambleyaning Jamoat fondi mavjud bo'lib, uning moliyaviy qo'llab quvvatlashi natijasida Etnomadaniy birlashma, Yoshlar tashkiloti, Mediatsiya markazi, Jamoat kelishuvi bo'yicha Kengash kabi ko'plab tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. 2018 yil Assambleya to'g'risidagi qonunga o'zgartirish kiritilib mamlakatda umummilliy birlik muhitini rivojlantirish Assambleyaning asosiy vazifasi qilib belgilandi.

Qirg'iziston Respublikasi ham postsovet mintaqadagi etno-milliy ziddiyat ba'zan faol, ba'zan pasayib ro'y berib turadigan hudud hisoblanadi. Mamlakatning tabiiy resurslar masalasida qo'shnilari bilan muammolari milliy-etnik ziddiyatlarga aylanib ketish xavfi nihoyatda baland. Aynan Qirg'izistonda ham nodavlat sektordagi tashkilotlar oxirgi yillarda mamlakatdagi etno-milliy vaziyatni barqarorlashtirishga yetarli darajada o'z hissasini qo'shib kelayotganligi diqqatga sazovor. Masalan, Xalqaro tolerantlik jamoatchilik fondi Qirg'izistonning turli mintaqalarida konfliktogen muhitni yumshatishni infratuzilma obyektlarini yaxshilash orqali amalga oshirib kelmoqda. Baotkent viloyatida Fond tomonidan mahalliy aholi ishtirokida suv inshootlarini ta'mirlash orqali to'xtovsiz suv ta'minotini ta'minlashga erishildi. Chunki bu mintaqada suv zaxiralarini yetishmovchiligi ziddiyatlar kelib chiqishining asosiy sababi edi. Fondning say'-harakatlari natijasida mahalliy hokimiyat organlari ham milliy-etnik ziddiyatlarni oldini olish va yumshatish bo'yicha muayyan tajribalarni ham orttirishdi.

Ko'pmillatli O'zbekistonda ham fuqarolik jamiyati institutlarining milliy va etnik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan tajribasi mustaqillik yillarida o'zining samarali natijalarini berdi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda Qo'mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 147 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyati hamda xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilmoqda. Milliy madaniy markazlar O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari sanaladi. Bu jamoat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston



Respublikasining jamoat tashkilotlari to'g'risidagi amaldagi qonunlaga hamda o'z nizomiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekistonda yaratilgan qulay millatlararo muhit tufayli tojik, turk va qozoq millatiga mansub aholi vakillari tomonidan 2020 yilda 7 ta yangi milliy madaniy markaz va 2 ta do'stlik jamiyati tashkil etildi. Qo'mitaning davlat ijtimoiy buyurtmasiga asosan 2020 yilda Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun 600 mln so'm mablag', shuningdek 1,45 mlrd so'mlik grant ajratilgan. Mamlakatimizning oliy mukofoti O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan yurtimizda istiqomat qilayotgan 14 nafar boshqa millat vakillarining mukofotlanishi ham millatlararo munosabatlarni mustahkamlash hamisha davlat siyosatining diqqat-e'tiborida bo'lishini bildiradi. Mamlakatimiz milliy siyosati O'zbekistonning ko'pmillatliligini uning boyligi sifatida qarab, shu yurtni o'z Vatani deb biladigan, uning taqdiriga befarq bo'lmagan, milliy va etnik mansubligidan qat'iy nazar har bir fuqaroni insoniy haq-huquqlari, erkinliklarini munosib himoya qilishga qaratilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, fuqarolik jamiyati institutlari ham milliy va etnik xarakterdagi ziddiyatlarni oldini olish, ularning keskinligini pasaytirish, qarama qarshi tomonlarning o'rtasida muzokaralar olib borishga yetarli ta'sir o'tkaza oladilar. Shuning uchun polietnik mamlakatlarda siyosiy kommunikatsiya yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa fuqarolik jamiyatining institutlari etnik va millatlararo ziddiyatlar profilaktikasi, ularni konfliktogen darajasini pasaytirishga munosib hissa qo'sha oladilar. Chunki nodavlat notijorat tashkilotlari qarama-qarshi tomonlarning nuqtai nazarini, ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yuvchi kommunikativ kanalga aylanadilar. Tomonlarga bir-birini manfaat va qiziqishlarini tushunishda hamkor bo'ladilar. Ular axborotni buzib ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaydilar. Ularning faoliyati qaysidir davlat organini pozitsiyasini himoya qilishga qaratilmagan, shuning uchun nodavlat notijorat tashkilotlarining milliy va etnik ziddiyatlarga samarali ta'sir o'tkaza oladigan vositalarini munosib baholash kerak va faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish lozim.

REFERENCES

1. Даниелян П. С., Заслонкина О. В. К вопросу о роли национальных общин в регулировании межнациональных конфликтов. Орловский государственный университет. 2018.
2. Мухаметов Р. С. Место и роль неправительственных организаций в урегулировании международных конфликтов. Уральский федеральный университет. 2017.
3. Регулирование этнополитической конфликтности и поддержание гражданского согласия в условиях культурного разнообразия: модели, подходы, практики. (Аналитический доклад Национального исследовательского института мировой экономики и международных отношений имени Е. М. Примакова Российской Академии наук). Москва. ИМЭМО РАН. 2017.
4. Евроатлантическая инициатива в области безопасности. Исторические примирения и затяжные конфликты.
5. Медиация в сфере межнациональных отношений, как способ предотвращения и урегулирования межэтнических конфликтов. Методические рекомендации автономной некоммерческой организации альтернативного разрешения споров «Рязанский центр медиации и права». Нижневартовск. 2018.
6. Комитет национального диалога в Тунисе. <https://www.bbc.com/>
7. Межэтнические конфликты в Центральной Азии: уроки и механизмы миростроительства. <https://www.caa-network.org/>
8. Milliy madaniy markazlar faoliyati. <https://yuz.uz/uz/news/>